



O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘ZBEK TILI DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Normo‘minov Sherzod To‘ychiyevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Boliyeva Shaxzoda Burxon qizi

Samarqand Davlat Pedagogika Instituti

Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili darslarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Unda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy yondashuvini shakllantirish hamda darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek tili darslarida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim, o‘yin texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, innovatsion pedagogik texnologiya, interfaol metod.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o‘quvchilarga chuqur bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlaydigan, o‘z fikrini aniq va ravon ifodalay oladigan, zamonaviy axborot vositalaridan foydalana oladigan, ijodkor va faol shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, o‘zbek tili darslari bu jarayonda alohida ahamiyatga ega, chunki til ta’limi o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, dunyoqarashi va muloqot madaniyatini shakllantiradi.⁶²

O‘zbek tili darslarida faqat grammatik qoidalarni yodlatish yoki mashqlar bajarish bilan cheklanib qolish bugungi ta’lim talablariga to‘liq javob bermaydi. Chunki zamonaviy o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki izlanadigan, tahlil qiladigan, fikr bildiradigan, o‘z bilimini amaliy vaziyatlarda qo‘llay oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Shu bois dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘zbek tili darslarini qiziqarli, mazmunli

1. ⁶² Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent. 2021.



va samarali tashkil etishga yordam beradi. Ular orqali o'quvchilar darsda faol ishtirok etadi, o'z fikrini erkin bildiradi, matn bilan ishlaydi, savol-javob qiladi, guruhda muhokama yuritadi va ijodiy topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki og'zaki va yozma nutqi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati ham rivojlanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmuni va o'zbek tili ta'limidagi ahamiyati

Innovatsion pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv, samarali metod, zamonaviy vosita va ilg'or tajribalarni joriy etish demakdir. Bunday texnologiyalar o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi va amalda qo'llovchi faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. O'zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning nutqiy faolligini kuchaytirish, grammatik bilimlarni ongli o'zlashtirish va o'z fikrini ravon ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishdan iboratdir. Chunki til darslarida nazariy bilim amaliy nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.⁶³

An'anaviy darslarda ko'pincha o'qituvchi mavzuni tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglaydi va mashq bajaradi. Innovatsion darslarda esa o'quvchilar mustaqil fikrlaydi, savol beradi, javob izlaydi, guruhda ishlaydi, matn tuzadi, bahs-munozarada qatnashadi. Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. O'zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Nutqiy kompetensiya o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, ravon, mantiqli va mazmunli bayon eta olish malakasidir. Bu kompetensiyani rivojlantirish uchun o'quvchi darsda ko'proq gapirishi, yozishi, o'qishi, tahlil qilishi va fikr bildirishi kerak.

Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Masalan, matn tuzish, dialog yaratish, hikoyani davom ettirish, rasm asosida insho yozish, maqol mazmunini izohlash kabi topshiriqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Bunday faoliyat orqali o'quvchi til qoidalarini faqat yodlab qolmaydi, balki ularni hayotiy nutqda qo'llashni o'rganadi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchi berilgan topshiriqni bajarish uchun izlanadi, matnni o'qiydi, ma'lumotlarni tahlil qiladi, xulosa chiqaradi. Bu jarayon uning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mas'uliyat

2. ⁶³ Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent.



hissini kuchaytiradi. O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchidan ham yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi. O‘qituvchi dars maqsadini aniq belgilashi, mavzuga mos metod tanlashi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasini hisobga olishi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi lozim. Shundagina innovatsion texnologiyalar kutilgan natijani beradi.

O‘zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash shakllari

O‘zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar turli shakllarda qo‘llanadi. Ulardan eng samaralilari interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi topshiriqlardir. Interfaol metodlar o‘zbek tili darslarida keng qo‘llanadigan samarali usullardan biridir. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Bumerang”, “Bahs-munozara”, “Guruhda ishlash”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. Masalan, “So‘z turkumlari” mavzusida “Klaster” metodidan foydalanib, ot, sifat, son, fe‘l kabi tushunchalar atrofida misollar keltirish mumkin. Bu usul mavzuni tizimli tushunishga yordam beradi.⁶⁴

“Aqliy hujum” metodi yangi mavzuni boshlashda juda foydali. Masalan, “Nutq madaniyati” mavzusini o‘tishda o‘qituvchi o‘quvchilarga “Madaniy nutq qanday bo‘lishi kerak?” degan savol beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aytadilar, o‘qituvchi esa ularni umumlashtirib, yangi mavzuga bog‘laydi. Bu metod o‘quvchilarni fikrlashga va erkin javob berishga o‘rgatadi. “Bahs-munozara” metodi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Masalan, “Kitob o‘qishning inson hayotidagi o‘rni”, “Ona tili — millat ko‘zgusi”, “Internet nutq madaniyatiga qanday ta’sir qiladi?” kabi mavzularda munozara tashkil etish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi va xulosa chiqaradi.

“Rol o‘ynash” texnologiyasi ham o‘zbek tili darslarida samarali natija beradi. O‘quvchilar turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtiradilar. Masalan, “Kutubxonada suhbat”, “Do‘konda xarid qilish”, “Mehmon kutish”, “Intervyu olish”, “O‘qituvchi va o‘quvchi suhbat” kabi rolli topshiriqlar orqali o‘quvchilar og‘zaki nutqni tabiiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘qituvchi darsda muammoli savol yoki vaziyat yaratadi. Masalan, “Nima uchun tinish belgilarini noto‘g‘ri qo‘llash matn mazmunini o‘zgartirib yuboradi?” yoki “Nima uchun bir so‘z turli gaplarda turlicha ma’no

3. ⁶⁴ Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. —

Toshkent. 2021.



bildirishi mumkin?” kabi savollar o‘quvchilarni o‘ylashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga undaydi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi o‘quvchilarning mustaqil izlanish, ijodiy ishlash va jamoada hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilarga “O‘zbek tilining boyligi”, “Maqollar xalq donishmandligi sifatida”, “Ona tilim — g‘ururim”, “Mahallamizdagi sheva so‘zlari” kabi mavzularda kichik loyiha tayyorlash topshirilishi mumkin. O‘quvchilar mavzu bo‘yicha ma’lumot to‘playdi, tahlil qiladi, taqdimot tayyorlaydi va sinf oldida himoya qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham o‘zbek tili darslarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Elektron taqdimotlar, videodarslar, audio materiallar, elektron testlar, onlayn mashqlar, interaktiv doska va multimedia vositalari darsni qiziqarli qiladi. Masalan, matnni tinglab tushunish, video asosida fikr bildirish, elektron test orqali mavzuni mustahkamlash o‘quvchilar uchun qiziqarli va foydali bo‘ladi.⁶⁵

O‘yin texnologiyalari ham o‘zbek tili darslarida yaxshi samara beradi. “Kim chaqqon?”, “So‘z top”, “Davom ettir”, “Xatoni top”, “Gap tuz”, “Zanjir” kabi didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning diqqatini kuchaytiradi, so‘z boyligini oshiradi va mavzuni oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, quyi va o‘rta sinflarda o‘yin texnologiyalari darsga qiziqishni kuchaytiradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchi olgan bilimni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadi. Masalan, o‘quvchilar e’lon yozish, ariza namunasi tuzish, tabrik matni yaratish, dialog tuzish, rasm asosida hikoya yozish kabi topshiriqlarni bajaradilar. Bu esa o‘zbek tili darslarini amaliy hayot bilan bog‘lash imkonini beradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi va amaliy natijalari

O‘zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Bunday darslarda o‘quvchilar mavzuni faqat eshitibgina qolmay, balki amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Ular mustaqil fikrlaydi, savollarga javob izlaydi, matn bilan ishlaydi, guruhda muhokama qiladi va o‘z fikrini asoslab beradi. Innovatsion texnologiyalar dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshiradi. O‘quvchi darsda bevosita ishtirok etgani uchun mavzuga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi. Masalan, oddiy tushuntirish o‘rniga guruhli topshiriq, rolli o‘yin yoki muammoli savol berilsa,

4. ⁶⁵ Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. — Toshkent.



o'quvchilar mavzuni faol o'zlashtirishga harakat qiladi.⁶⁶

Bunday texnologiyalar o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Bahs-munozara, savol-javob, rol o'ynash, taqdimot qilish kabi faoliyatlar orqali o'quvchilar fikrini ravon ifodalashga, dalil keltirishga, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga o'rganadilar. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini shakllantiradi. Yozma nutqni rivojlantirishda ham innovatsion texnologiyalar samarali hisoblanadi. "Matnni davom ettir", "Xatoni top va tuzat", "Rasm asosida hikoya yoz", "Maqol asosida fikr bildir", "Berilgan so'zlar asosida gap tuz" kabi topshiriqlar o'quvchilarning yozma savodxonligini oshiradi. Ular imlo qoidalariga, tinish belgilariga va gap tuzilishiga e'tiborli bo'lishni o'rganadilar.

Innovatsion metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, muammoli savollar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchi tayyor javobni kutmaydi, balki o'zi izlanadi, o'ylaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Bu jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratadi. Guruhli va juftlikdagi topshiriqlarda o'quvchilar bir-biri bilan fikr almashadilar, vazifalarni taqsimlaydilar, umumiy natijaga erishishga harakat qiladilar. Bu esa ularda mas'uliyat, o'zaro hurmat, jamoada ishlash madaniyatini rivojlantiradi.

O'zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi. Matn bilan ishlash, ijodiy yozuv, og'zaki suhbat, munozara va taqdimotlar jarayonida o'quvchilar yangi so'z va iboralarni o'rganadilar. Ularni o'z nutqida qo'llash orqali fikrini aniq va chiroyli ifodalashga odatlanadilar. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi o'qituvchining darsni qanday tashkil etishiga ham bog'liq. O'qituvchi metodni mavzuga mos tanlashi, topshiriqlarni aniq berishi, vaqtini to'g'ri taqsimlashi, har bir o'quvchining ishtirokini ta'minlashi kerak. Agar metod maqsadsiz qo'llansa, dars samaradorligi pasayishi mumkin. Shuning uchun har bir innovatsion texnologiya aniq maqsadga xizmat qilishi zarur.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'zbek tili darslarida o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, mavzuni tushunish darajasi yaxshilanadi, og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi, grammatik bilimlarni amalda qo'llash malakasi mustahkamlanadi. Eng muhimi, o'quvchi o'zbek tilini faqat fan sifatida emas, balki hayotiy muloqot vositasi sifatida anglay boshlaydi. Shu sababli o'zbek tili darslarida

5. ⁶⁶ Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. —



innovatsion pedagogik texnologiyalardan maqsadli, tizimli va ijodiy foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va ularni zamonaviy talablarga javob beradigan faol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Bunday texnologiyalar o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, uning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi, ijodiy yondashuvi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. O'zbek tili darslarida interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mavzuni ongli o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu texnologiyalar grammatik bilimlarni amaliy nutq bilan bog'laydi va o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda darsga qiziqish, faollik, mustaqillik, ijodkorlik, hamkorlik va mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi. Shuning uchun o'zbek tili o'qituvchisi zamonaviy metodlardan unumli foydalanishi, darsni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan holda tashkil etishi lozim. Demak, o'zbek tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ona tili fanidan milliy o'quv dasturi. — Toshkent, 2021.
3. Mahmudov N. O'zbek tili ta'limida zamonaviy yondashuvlar. — Toshkent.
4. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent. 2021.
5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent. 2019.
6. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent. 2021.
7. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent. 2022.



8. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. — Toshkent. 2019.
9. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari. — Toshkent. 2021.
10. Karimov S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. — Toshkent. 2021.